



O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNI SHAKLLANISHI.

Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi

University of Business and Science talabasi

Tel: +998952240419

Gmail: mohlaroyteshaxojayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21436601>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrining inson shaxsini shakllantirishda o'rni va ahamiyati yoritilgan. Psixologik, aqliy va axloqiy rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy muhit, oila, maktab va do'stlarning ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, davlat siyosatining yoshlar tarbiyasiga bo'lgan e'tibori va yaratilayotgan sharoitlar misolida o'smirlarning barkamol shaxs sifatida yetishishiga xizmat qiluvchi omillar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, shaxs shakllanishi, psixologik rivojlanish, oila, maktab, tarbiya, ijtimoiy muhit, yoshlar siyosati, Prezident nutqi, axloqiy tarbiya.

Kirish qismi:

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratib, shunday degan edilar: "Yoshlar - bu bizning ertamiz, ertangi kunimiz, xalqimizning orzusi, umidi, kuch-qudratidir. Ularni barkamol insonlar qilib tarbiyalash - bu eng muhim vazifamiz". Bu fikr o'zida katta ma'no mujassam etgan. Aynan o'smirlik davrida qarashi, dunyoqarashi shakllanadi. Shu sababli, ushbu bosqichda berilgan to'g'ri tarbiya, yaratib berilgan sog'lom muhit va ko'rsatilgan ijtimoiy ko'mak uning kelajagini belgilaydi.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, printsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda "ideal men", "axloqiy men", "haqiqiy men, saxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan printsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari



asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib topirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. To'g'ri o'zini-o'zi baholash dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllanadi. Lekin hamma gap shundaki bu natijalarni ta'sirini atrofdagilar baholaydilar. Shuning uchun atrofdagilarning bahosi o'zini-o'zi baholashni belgilab beradi. O'ziga bo'lgan tuyg'u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofdagilar ta'lim muassasasi o'quvchisiga xurmat bilan munosabatda bo'lishsa u ham o'zini xaqiqiy xurmatga sazovor deb hisoblay boshlaydi. Agar, aksincha ish qilinsa, o'quvchiga muntazam iltifotsizlik ko'rsatilganda, asosiy e'tibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda uning o'zi haqida xurmatga sazovor emas degan xulosa chiqarishdan o'zga imkoni qolmaydi. Bunga nisbatan ham turlicha holat ro'y berishi mumkin: loqaydlik, beadablik, tajovuzkorlik va boshqalar. O'smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba'zan o'zlarining kuchlari etmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Asosiy qarama-qarshilik juda ko'p orzu-tilaklarni vujudga keltiruvchi, jadal ortib borayotgan jismoniy, ma'naviy va moddiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish uchun nihoyatda cheklangan hamda ko'p jihatdan etarli bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. O'smirning o'z kuchiga to'la ishonmasligi uni butun vositalar bilan shunchaki o'zini katta kishi bo'lib qolganligini ta'kidlashga majbur qilibgina qolmay, shu bilan birga bu tuyg'uni etarli baholay olmaslik holatini ham vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida kattalarga qo'pol munosabatda bo'lish va agressivlikni hamda ota-onalar bilan



o'qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinlardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojlanishda keskin o'zgarigalar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasini o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipoez bezining funktsiyasi faollashadi. O'smirning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muxim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini ko'chaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil qilish uchun ta'lim jarayonining o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish jarayonini, ko'nikma va malakalarni, faol, mustaqil hamda ijobiy tafakkur jarayonlarini tarkib toptirishni yaxshi bilish lozim bo'ladi. Psixolog L.S.Vigotskiy ko'rsatib o'tganidek, ular ma'lum hodisalarga nisbatan o'zlarining kundalik hayotdagi oddiy tushunchalari bo'ladi. Bu esa ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Bundan keyin, tushunchalarni tarkib toptirishda hissiy negizga qay darajada tayanish lozimligini, qaysi paytda ko'rgazmalilikdan va yakka hodisalardan qutilib, mavhumlik hamda umumiylikka o'tish maqsadga muvofiqligini bilish kerak. Ko'rgazmali tayanchdan barvaqt voz kechish ham ana shu bosqichda sun'iy ravishda to'xtab qolish ham bir xil xatodir. Shuning bilan birga ko'rib va eshitib idrok qilish



xususiyatlarini hamda ularning o'zaro munosabat xarakterini bilish kerak. O'tilgan materiallarni qanday yo'l bilan psixologik jihatdan samarali qilib mustahkamlash mumkin? O'quvchiga savolni qanday berish mumkin: umumiy qilibmi yoki konkret shakldami? Bir xil savollarni beraverish to'g'rimi? Yordamchi savollarning roli qanday? (Psixologiyada shu narsa ma'lumki, javob beriladigan savolning ifodalanish xarakteriga ham bog'liq bo'ladi). Pedagogik psixologiyani bilish tarbiya ishlarida ham zarurdir. Shaxs tarkib topishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, jumladan, axloqiy odatlar va ishonch-e'tiqod tarkib topishining qonuniyatlarini bilmay turib, to'g'ri tarbiya berish mumkin emas. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, Shuningdek, ota-onasiga qarshi chqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtoq'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirlarga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq. Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'lko'lichiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati - yoshlarga bolik, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma'naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak. Har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatleri



majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi. o'smirlik yoshida shaxsning shakllanishi psixologik, jismoniy va intellektual rivojlanga oid bir necha aspektlarga bog'liqdir. Bu davraniyot va rivojlanga tarkibiy jarayonidir, va har bir shaxsga xos bo'lishi mumkin. Quyida o'smirlik yoshidagi shaxsning shakllanishini ta'riflash uchun muhim aspektlarni ko'rib chiqamiz:

1.Psixologik shakllanish: O'smirlik yoshida shaxsning psixologik rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Bu daryo bo'g'chalarida o'sgan bilim va tajriba, hissiyotlarning boshqarish qobiliyatlari, o'z-o'zini tushunish va o'zini ifodalash qobiliyatlari, emotsional taraqqiyot va o'zini boshqarishni o'rganishni o'z ichiga oladi.

2.Jismoniy rivojlanish: O'smirlik yoshida jismoniy rivojlanishning o'ziga xos jarayoni mavjud. Bu davolash, qon va oziq-ovqat tarkibining o'sishi, gormonal o'zgarishlar, shakar, tuz va oziqovqat yetishmasi bilan bog'liq jarayonlardir. Shaxsning jismoniy rivojlanishi o'smirlik yoshida shakllanishning muhim qismidir.

3.Intellektual rivojlanish: O'smirlik yoshida shaxsning intellektual rivojlanishi ham juda muhimdir. Bu daryo bo'g'chalaridagi o'rganish va tajriba, tushunchalar, fikr-mulohazalar va tushuntirish qobiliyatlari, tushunish, xotira va muhokama qobiliyatlari, o'z ifodalash va muhokama qilish qobiliyatlari bilan bog'liqdir. Shaxsning intellektual rivojlanishi o'smirlik yoshida shakllanishning asosiy qismidir. Shaxsning o'smirlik yoshida shakllanishi shu aspektlarning birlashmasi bilan belgilanadi. Uning tarbiyaviy muhit, o'quv-uslublar va ota onaning o'rganishga qaratilgan qiziqishlari va dasturi, yaqin do'stlar va oila a'zolari bilan o'rtacha o'sish va rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, har bir shaxs o'smirlik yoshida o'ziga xos, o'ziga xos qobiliyatlari va talantlarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun shaxsning shakllanishi shaxsga bog'liqdir va individual bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.



2. Karimova, Z. (2021). Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Hasanboyeva, R. (2019). Oila va tarbiya psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Psixologiya instituti.
4. Abdurahmonov, Q.X., Sharipov, M.T. (2020). Psixologiya asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo.
5. To‘xtayeva, M. (2022). Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2019-yil 27-martdagi PQ–4245-son). Beshta muhim tashabbusni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – www.lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (2021). Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiylashtirish asoslari. – Toshkent.
8. Yusupova, G. M. (2018). O‘smirlar tarbiyasi va muammolari. – Toshkent: “Ziyo” nashriyoti.
9. Jo‘rayev, B. va boshq. (2020). O‘smirlik psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
10. “Yoshlar siyosati” qonuni (2016-yil 14-sentabr). – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.